



## The need to improve the professional competence of future teachers on the basis of historical thinking and the practical situation of the problem

Ikromjon USMONALIEV<sup>1</sup>

Andijan State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received April 2021  
Received in revised form  
28 April 2022  
Accepted 20 May 2022  
Available online  
10 June 2022

**Keywords:**

historical thinking,  
future teacher,  
competence,  
problem,  
culture,  
development,  
upbringing,  
historical consciousness,  
national pride,  
patriotism,  
harmoniously developed  
generation,  
society.

### ABSTRACT

This article discusses the need to improve the professional competence of future teachers on the basis of historical thinking and analyzes the practical state of this problem. The article also provides suggestions and recommendations on improving the professional competence of future teachers on the basis of historical thinking. The research topic focused on overcoming the problems encountered during the study, as well as the preparation of comprehensively mature teachers.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss5/S-pp132-141>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish zarurati va muammoning amaliyotdagi holati

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

tarixiy tafakkur,  
bo'lajak o'qituvchi,  
kompetensiya,  
muammo,  
madaniyat,

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish zarurati haqida fikr yuritilib, ushbu muammoning amaliyotdagi holati tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomil-

<sup>1</sup> Basic doctoral student, Andijan State University. Andijan, Uzbekistan.

rivojlanish,  
tarbiya,  
tarixiy ong,  
milliy g'urur,  
vatanparvar,  
barkamol avlod,  
jamiyat.

lashtirish masalalari bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot mavzusi yuzasidan o'rganishlar natijasi davomida ko'rilgan muammolarni bartaraf etish, shu bilan birga, har tomonlama yetuk pedagoglarni tayyorlash haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

## **Необходимость совершенствовать профессиональной компетенции будущих учителей на основе исторического мышления и положение проблемы на практике проблемы**

### **АННОТАЦИЯ**

#### **Ключевые слова:**

историческое мышление,  
будущий учитель,  
компетентность,  
проблема,  
культура,  
развитие,  
воспитание,  
историческое сознание,  
национальная гордость,  
патриотизм,  
гармонично развитое  
поколение,  
общество.

В данной статье рассматривается необходимость повышения профессиональной компетентности будущих учителей на основе исторического мышления и анализируется практическое состояние данной проблемы. Также в статье представлены предложения и рекомендации по повышению профессиональной компетентности будущих учителей на основе исторического мышления. Тема исследования сосредоточена на преодолении проблем, возникающих в процессе обучения, а также излагаются мнения по на подготовке всесторонне развитых педагогов.

### **KIRISH**

Muayyan millatning jahon hamjamiyatida o'ziga xos mavqe va o'ringa ega bo'lishi uning ko'p sonli yoki kam sonli bo'lishiga bog'liq emas. Aksincha, o'zida milliy xususiyatlarni namoyon eta olish, millat vakillarining o'z haq-huquqlarini chuqur anglash, o'zga millatlarga moddiy va ma'naviy jihatdan qaram bo'lmaslik, mustaqil holda mavjud bo'lishi uning xalqaro maydondagi maqomini belgilab beradi.

Xalqaro munosabatlar borasida o'z qarashlarini dadil bildira olish, millat sha'ni va obro'sini oshirish uchun kurashish, o'zga millatlarda o'ziga nisbatan salbiy munosabatlar shakllanishining oldini olishga intilish millat nufuzini yanada oshiradi.

Millatning xalqaro maydondagi mavqeyini belgilashda, shuningdek, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi taraqqiyparvar g'oyalar, jamiyat hayotining ular negizida yo'lga qo'yilishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mamlakatimiz jamiyatida tarixiy xotira, tarixiy ong, vatanga muhabbat va uning tarixidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish, yosh avlodni ana shu g'oya ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", – [1, 3] deya ta'kidlaganlari bejizga emas.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, biz yangi O'zbekistonni qurishda jamiyat taraqqiyotini ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz. "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan shior bugungi islohotlarning amaliy ahamiyatini o'zida mujassamlashtirgan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Buning barobarida maktab ta'lim tizimida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va madaniyat ulashuvchi bo'lajak pedagoglarni sifat darajasida yuksaltirish, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, uning tarixini chuqur anglash, bir so'z bilan aytganda, tarixiy tafakkur va tarixiy xotira bilan qurollantirish zaruratini har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, shaxs tarbiyasi, inson kamoloti vatan ravnaqini belgilab beruvchi muhim omildir. Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi ro'y bergan muhit ham mansubdir. Bu jarayonga turli davlatlarda olib boriladigan millatlararo munosabatlar va milliy siyosat ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu, ayniqsa, shaxsiy xislatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday xislatlarga milliy o'z-o'zini anglash, g'urur, iftixor kabi tushunchalar kirishini e'tiborga oladigan bo'lsak, shaxsning axloqiy shakllanishi umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda kechadi, deb xulosa qilish mumkin [4, 44].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ma'lumki, tarixiy tafakkur, tarixiy hotira, o'z tarixini o'rganish masalalari tasavvuf ilmi bilan uyg'unlashgan Sharq pedagogikasida ming yillar davomida xalqimiz ma'naviyatining shakllanishida muhim manba bo'lib kelgan "Qur'oni karim", Hadisi shariflarda, shuningdek, buyuk mutafakkirlar Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Muhammad Iso at-Termiziy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Amir Temur, Alisher Navoiylarning ilmiy merosida nodir fikrlar tarzida o'z ifodasini topgan.

Yangi davr pedagogikasining asoschilaridan sanalmish Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarida ham ta'lim-tarbiya va bu jarayondagi o'qituvchining o'rni va xizmatlari davrning ijtimoiy-siyosiy hayotidan kelib chiqib, o'ziga xos ravishda talqin etilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy o'qituvchi faoliyatiga alohida to'xtalib, bolaning fikriy taraqqiyotini oilaga emas, maktabga, muallimlar zimmasiga yuklaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g'ayratli, bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir", – deydi [5, 16].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yurt ravnaqi, farzand tarbiyasi o'qituvchilarga bog'liq. Shuning uchun bugungi bo'lajak o'qituvchilarni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash lozimligi darv talabidir. Ularning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki umummilliy, tarixiy bilimlarini ham qaror toptirib borish lozim. O'z kasbiy mahoratlarini tarixiy tafakkur va tarixiy ong bilan boyitib borishlari bo'lajak o'qituvchilarning barkamollik sari tashlagan dadil qadamlari bo'ladi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish, ularni vatan ravnaqi, yurt

obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilishga undaydi. Shuningdek, ularda bugungi yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotiga daxldorlik, biz dadil qadam tashlayotgan Uchinchi Rennessansga o'zlarining munosib hissasini qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanga muhabbat, uning taraqqiyotiga daxldorlik, tarixiga hurmat, buguni hamda ertasi uchun yonib yashash tuyg'ularini shakllantirish xususiyatlarini shakllantiradi. Ko'p millatli xalqimizning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlari asosida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat hamda elatlarning madaniyatini, tilini, dinini, tarixini, qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, turli millat va elatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro inoqlikning qaror topishiga o'z ulushini qo'shishga intilish ko'nikmalarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o'z qadr-qimmatini anglab yetishlarini ta'minlaydi.

Tarixni o'rganish bo'lajak pedagoglarda tarixiy tafakkurining yuksalishiga olib keladi. O'tmish madaniy merosini o'rganish murakkab jarayon sanaladi. Madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur [12, 58].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida shaxsning har tomonlama yetuk, barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlovchi muhitning yaratilishiga e'tibor qaratilmoqda va bu yo'lida keng ko'lamlil harakatlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchi maqomini yuksaltirish, uning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Prezident Sh.Mirziyoyev: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" [3, 23], – deganlari bejiz emas. Chunki asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosimiz va an'analarimiz inson ruhiyatini, tarixiy tafakkurini va milliy g'ururini shakllantiribgina qolmay, insonni vatanga muhabbat va uning o'tmishi, buguni va kelajagi uchun daxldor etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Buning uchun, avvalo, ilm dargohlarida o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lim va tarbiya beruvchi bo'lajak pedagoglarni zamon talablariga xos tarzda, milliylikka va tarixiylikka daxldor etib tarbiyalash, ularning tarixiy tafakkurini o'stirish muhim va kechiktirib bo'lmas vazifa hisoblanadi.

Ma'lumki, tarixiy tafakkur tushunchasi fan yo'nalishlarida o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Masalan falsafiy lug'atlarda tarixiy tafakkur tushunchasi ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta

namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishi deb ta'rif beriladi.[13,386] Shuningdek, falsafiy lug'atda tafakkur tushunchasiga ham:“predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi”, deb ta'rif beriladi [13, 387].

Ma'naviy lug'atlarda tafakkur (arab. fikrlash. aqliy bilish) – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqichi deya ta'rif beriladi [14, 541].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida tafakkur tushunchasiga shunday ta'rif beriladi :inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir [15, 164].

Filologik lug'atlarda esa tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiylikni aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi deyiladi [16, 8].

Mantiqiy lug'atlarda inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi, deya ta'rif beriladi. Hozirgi zamon fanining juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga (ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali-obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'zini o'zi tanqid, baholash, tekshirish, o'zini o'zi tekshirish, nazorat qilish, guruhiiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok kilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo'lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o'rganadi.

Biz esa bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini o'rganamiz. Pedagogik lug'atlardan tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni deya ta'riflanadi [17, 70].

Shaxsni tarbiyalash tarbiya jarayonini tashkil etish chog'ida ro'y berib, shaxsda ma'lum ma'naviy-axloqiy, irodaviy va shaxsiy xislatlarni qaror toptiradi. Tarbiya ijtimoiy hayotning umumiy va muhim kategoriyasi sanaladi. Shu bilan birga, ijtimoiy hodisa sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, ajdodlar tomonidan to'plangan tajribalarni

avlodlarga yetkazish, insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni egallash, inson salomatligi va rivojini ta'minlash, dunyoqarashni tarkib toptirish va boshqalar shular sirasidandir. "Tarbiya, birinchidan, shaxs shakllanishi, madaniyat elementlarini, insoniy, milliy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonida amalga oshirishini, ikkinchidan, tarbiya va madaniyatning o'aro aloqadorligini ifodalaydi va bu tarixiy tafakkur asosida tarbiyalanganlik darajasini belgilab beradi" [6, 128]. Tarixiy tafakkur asosida tarbiya jarayonining samarasi maqsadning aniq belgilanganligi, maqsadli tashkil etilgan faoliyatning natijalanganligi va uning mazmunida aks etuvchi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

A. Ibrohimov, X. Sulstonov va N. Jo'raevlarning fikrlariga ko'ra, "shaxs g'ururi – bu faxr", "milliy g'urur – bu iftixor" [7, 17] bo'lib, ular garchi bir-birlariga yaqin ma'nolarni anglatasa-da, bir vaqtning o'zida bir-biridan ma'lum darajada farqlanuvchi tushunchalar ekanligi ta'kidlanadi. Bu o'rinda mualliflar quyidagi fikrni ilgari suradilar: "Tarixiy tafakkur millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o'rin oladi" [8, 288]. "Tarixiy tafakkur tuyg'usi – o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati. Tarixiy tafakkur tuyg'usi – o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish imkoniyati. Tarixiy tafakkur tuyg'usi – o'zligini anglash va o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch" dir [8, 288].

Ko'rinib turibdiki, mualliflar bu o'rinda g'urur tushunchasini shaxsga, iftixor tushunchasini millatga xos tuyg'u sifatida e'tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta'rifdan g'urur tushunchasi individuallik, iftixor tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

"Milliy g'urur (iftixor), – deb ta'rif beriladi manbalarda, – shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha" [9, 35].

Bu tuyg'u shaxsda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

– millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo'lmaslik;

– xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo'lish;

– o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini asrab-avaylash;

– xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish to'g'risida qayg'urish;

– xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi masuliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda o'zbek xalqining boy o'tmishidan faxrlanish, jamiyatda ozod, farovon va erkin hayotni yaratish yo'lida mehnat qilish, faollik ko'rsatish, jahon hamjamiyati tomonidan ilm-fan, texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalardan foydalanish tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantiradigan, rivojlantiradigan omillardir. Bu esa, o'z navbatida, ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyatini belgilaydi, ularni sog'lom milliy g'urur, tarixiy

tafakkur tuyg'usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi. Pedagogika fanlari doktori, professor N.Erkaboeva o'zining doktorlik dissertatsiyasida talaba yoshlarni ma'nan yetuk, aqlan teran etib tarbiyalashda quyidagi tavsiyalarni ilgari suradi:

- milliy g'oya va milliy mafkura asosida yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishga doir tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish;
- ta'lim tizimini milliy an'analar, zamonaviy va xorijiy tajribalar asosida mazmunan va uslubiy jihatdan yangilash;
- ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodologik ilmiy-nazariy va metodik ta'minotini yaratish orqali pedagogika sohasidagi tadqiqotlarga tarixiylik tafakkurini singdirish [10, 37].

Bundan shuni anglashimiz mumkinki, nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishga balki, pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda ham tarixiy tafakkur, milliy o'likni anglash, milliy g'urur, vatanga muhabbat g'oyalarini singdirib borishimiz lozim.

"Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"da kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatini inson intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Modomiki, davlat barkamol shaxsni tarbiyalashni talab etar ekan, bu ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy meros, tarixiy tafakkurning ajdodlar siyosida namoyon bo'lganligini anglab yetishi, bu tuyg'uni o'zida singdira olishi, jamiyatda bu yo'lda keng ko'lamlil ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish kerak.

Zero, "faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashishi mumkin" [1, 67].

Tarixiy tafakkur tuyg'usi milliy mansublikni chuqur anglash, uni e'zozlashga ma'naviy-ruhiy jihatdan kelib chiqqan ehtiyoj mahsulidir. Tarixiy tafakkur, eng avvalo, o'zligini anglash, milliy ravnaqni ta'minlash yo'lidagi xatti-harakat, o'z millati istiqboli oldida masullikning beqiyos namunasidir. Tarixiy tafakkur tuyg'usiga ega bo'lgan har bir kishi o'z millati o'tmishini yaxshi bilgan, qadrlay olgan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar, holatlarda boyitib boradigan barkamol shaxsdir. Shu bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlod boshqa millatlar milliy an'analari, san'ati va madaniyatini hurmat qilish qobiliyati, ularni anglash salohiyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Agarda milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi, milliy g'ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir individ o'ziga xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo'lgan jamiyatda shakllanadi [11, 6].

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar mazmunidan shu narsa ayon bo'ldiki, bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalarini yoritib bergan maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Muammoni tadqiq etish mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning quyidagi yo'llari samarali ekanligini isbotladi:

- xususiyl fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarga milliy qadriyatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati, o'zbek xalqining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlarni berishga jiddiy e'tibor qaratish;
- tarbiyaviy jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirishga xizmat qiluvchi tadbirlarning yetakchi o'rin tutishi hamda tashkil etilayotgan tadbirlarning g'oyaviy jihatdan yuksak saviyada bo'lishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish;

– bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirish jarayonida ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanish;

– bosh g'oyasi maishiy muammolardangina iborat bo'lib, g'oyaviy saviyasi va ijro mahorati past bo'lgan musiqa va kino san'ati na'munalarining ommaviy axborot vositalari sahifalaridan o'rin olishiga nisbatan jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, shu bilan birga, gazeta va jurnallarda imkoni boricha ko'proq ijtimoiy ong va shaxs dunyoqarashini boyitish, fuqarolarda fikrlash layoqatini shakllantirish;

– ishlab chiqarish va ijod sohalarida samarali faoliyat yuritayotgan zamona qahramonlarini yoshlarga tanishtirishga alohida e'tibor qaratish va bu yo'lda faollik ko'rsatish;

– yoshlarda umummillat va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo'ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to'laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo'lida mehnat qilishlariga erishish uchun psixologik va pedagogik sharoit yaratish;

– yoshlar o'rtasida vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi tadbirlarning keng ko'lam va yuksak saviyada tashkil etish an'anasini qayta tiklash;

– bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirishning psixologik-pedagogik va falsafiy jihatlarini yaxlit holda o'rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo'llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o'rganish kabi jarayonlar muammoga yechim bo'lishi mumkin.

Yuqorida ifodalangan fikrlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish jarayonining mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: bo'lajak o'qituvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat bo'lib, bu muammoning hal etilishi milliy mustaqillikni mustahkamlash va millatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi. O'quv fanlarining bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatini aniqlash, pedagogik shart-sharoitlar, omillarni o'rganish, ta'lim va tarbiyaviy ishlar mazmunida bu masalaning aks etishiga erishish, ularning milliy madaniyat, tarix va qadriyatlar mohiyatini yorituvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida ko'ngilli, majburlovlarsiz ishtirok etishlariga erishish lozim.

Bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, ularning muvaffaqiyatini ta'minlash hamda ta'lim oluvchilarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishlariga erishish oliy ta'lim muassasalari faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Biroq bu yo'nalishda amalga oshiriluvchi faoliyatning samarali kechishida tashkiliy va subyektlar ishtiroki masalasi alohida e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihat sanaladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkur tuyg'usiga ega bo'lishlarini ta'minlashda mikro va makromuhitlarning ta'siri kuchlidir. Shu bois bo'lajak o'qituvchilar mansub bo'lgan muhitda ijtimoiy sog'lom munosabatlarning qaror topishiga erishish nihoyatda muhim. Shu bilan birga, o'quv-tarbiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkur tuyg'usiga ega bo'lishlariga yordam beruvchi samarali shakl, metod va vositalarni belgilash ham muhimdir.



Bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirishdagi mikro-muhitga biz quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- oila davrasidagi ta'lim-tarbiya jarayonlari;
- do'stlar orasidagi suhbatlar, o'zaro aloqa almashinuvlari;
- insonlar bilan odatiy, kundalik suhbatlar va shunga o'xshash boshqa jihatlarni aytish mumkin.

Aksincha, makromuhitga quyidagilar kiradi:

- ta'lim dargohidagi (maktab, akademik litsey, kasb-hunar texnikumlari, oliy o'quv yurtlari) ta'lim-tarbiya jarayonlari;
- ommaviy axborot vositalari;
- mahalla;
- davra suhbatlari, treninglar, turli madaniy hamda ilmiy uchrashuvlar;
- internet;
- keng qamrovli ta'sir kuchiga ega bo'lgan boshqa jihatlarni ham kiritishimiz mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllanishida ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni muayyan tizim asosida, izchil va uzluksiz tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'sirchan vositalardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarda tadbirlarning uyushtirilishiga nisbatan befarq bo'lishlariga imkon bermaydi, aksincha, qiziqishlarini oshiradi.

Pedagogik va psixologik yo'nalishlarda yaratilgan manbalarda qayd aytilishicha, muayyan maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat muvaffaqiyati uning shakl, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, ular tashkil etilayotgan jarayonga subyektlar (o'quvchilar, bo'lajak o'qituvchilar, ota-onalar, respondentlar)ni samarali jalb etish, ularning faolliklarini ta'minlash jarayonning kechishi va yakunlari to'g'risida ma'lum xulosalarga kelish, natijalarni tahlil etish, erishilgan yutuqlarga baho berish yoki yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilashga imkon beradi.

### **XULOSA**

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

“Pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari” ta'lim tizimida o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Mazkur muammoning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish, ularni nazariy va amaliy jihatdan asoslash, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirishga erishish, so'z yuritilayotgan jarayonning samarali tashkil etilishiga imkon beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish va ularning kasbiy barkamolligida tarixiy xotira, umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik g'oyalarining to'laqonli kamol topishidagi ahamiyati tahlil etildi.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'z tarixiga bo'lgan qiziqishni oshirish va shuning barobarida tarixiy tafakkurni yuksaltirish, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, inson, jamiyat va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qimmat tuyg'usi, yuksak ma'naviyat, milliy g'urur, milliy iftixor, ijtimoiy me'yorlarga asoslangan xulq-atvor, mantiqiy va ijodiy fikrlashni tarkib toptirishga qaratilgan metodik ta'minot o'rganildi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida shakllantirish zarur ekanligi aniqlandi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida tarbiyalashning shakl va metodlarini ishlab chiqish zarur ekanligi aniqlandi. Bu bo'yicha innovatsion texnologiyalarni yaratish va uni amaliyotda qo'llash bilan bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkurni o'stirish mumkinligi dalillandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 67.
2. Mirziyoyev Sh.M "Ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari" bo'yicha vadeoselektor yig'ilishidan.
3. Mirziyoyev Sh.M "Qonun ustuvorligi inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovidir", T.: "O'zbekiston", 2017. – B. 23.
4. Egamberdieva N "Ijtimoiy pedagogika", T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti" 2009. – B. 44.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – B. 16.
6. Yo'ldashev O' "Umumiy pedagogika" T.: "Fan va texnologiya", 2017. – B. 128.
7. Jo'raev N "Tarixiy falsafaning nazariy asoslari". T.: "Ma'naviyat" 2008. – B. 17–18.
8. Ibroximov A va boshqalar. Vatan tuyg'usi. Toshkent, 1996. – B. 288.
9. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. T.: 1999.
10. Erkaboeva N.Sh "Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi" doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, T.: 2007. – B. 37–38.
11. Quronov M., Daminova I., Bozorov O., Akrmova Sh. "Milliy tarbiya va yoshlar", T.: "Kamalak", 2016. – B. 6.
12. To'xtaxo'jaeva M.X., Nishonova S.N., Hasanboev J. va b.q. "Pedagogika. Pedagogika nazariyasi va tarixi. I qism. Pedagogika nazariyasi" T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2010. – B. 58.
13. Falsafiy lug'at "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2004. – B. 386.
14. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" Toshkent. 2010. – B. 541.
15. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent: 7-jild, 2007. – B. 164.
16. O'zbek tilining izoxli lug'ati "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, T.: 2015. – 4-jild 008.
17. Pedagogik atamalar lug'ati. T.: 2008. – B. 70.